

## XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA'SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Sapayeva Fazilat Norbayevna**

Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [beko2300454@gmail.com](mailto:beko2300454@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati, ularning tarkibiy tuzilishi, dinamikasi hamda ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion muhitni yaxshilash orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobatbardoshlik, investitsiya, iqtisodiy o'sish, xorijiy sarmoya, infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish.

### **Аннотация**

В статье анализируется значение инвестиций в обеспечении экономической конкурентоспособности Хорезмской области, их структурная структура, динамика и основные факторы влияния. Также рассматриваются возможности стимулирования регионального экономического роста посредством улучшения инвестиционного климата.

**Ключевые слова:** Конкурентоспособность, инвестиции, экономический рост, иностранные инвестиции, инфраструктура, региональное развитие.

### **Abstract**

This article analyzes the importance of investments in ensuring the economic competitiveness of the Khorezm region, their structural structure, dynamics and key influencing factors. It also considers the possibilities of stimulating regional economic growth by improving the investment climate.

**Keywords:** Competitiveness, investment, economic growth, foreign investment, infrastructure, regional development.

### **KIRISH**

Davlatning iqtisodiy taraqqiyoti uning mavjud salohiyati va undan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Bunda hududiy birliklar rivojidadagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va mintaqalar raqobatbardoshligini ta'minlash talab qilinadi. Mintaqalar o'rtasidagi samarali raqobat ichki iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mintaqalar raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish, hududlar iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy kapitali va yashirin raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish mexanizmlari hamda choralari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun globallashuv sharoitida mintaqalar raqobatbardoshligining ilmiy asoslarini tadqiq etish, uni oshirish jarayonlarini tahlil qilish, baholash va boshqarish metodlarini ishlab chiqish, mintaqalar raqobat salohiyati, raqobat ustunliklari va raqobatbardoshligini

baholashning mezonlari hamda ko'rsatkichlarini shakllantirish, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishbilarmonlik muhiti va iqtisodiyotning ochiqligi omillari ta'sirini tizimli tadqiq qilish asosida O'zbekiston mintaqalari raqobatbardoshligining mavjud holatini baholash va iqtisodiy diagnostika o'tkazish, mintaqalarning istiqbolli rivojlanish salohiyatini baholash, mintaqa raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-funksional jihatlarini tahlil qilish, yashirin raqobat ustunliklarini aniqlash asosida mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategik qarashlar va ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda ularni amalga oshirish choralari va mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqa raqobatbardoshligini oshirish jarayonida hududiy boshqaruv organlarining tashkiliy-funksional salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli choralarni ishlab chiqish, olingan tadqiqot natijalarini O'zbekiston mintaqalarini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llash talab etiladi [1].

Xorazm viloyati O'zbekistonning agrar va turistik salohiyatga ega bo'lgan hududlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida investitsion faollik ortib bormoqda. Shu bilan birga, viloyat iqtisodiyoti respublika miqyosida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bo'yicha yetarlicha yuqori o'rinni egallamagan. Hududiy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida kapital qo'yilmalarni jalb qilish, investitsion muhitni yaxshilash va investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

Globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki texnologik yangilanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Xususan, Xorazm viloyatining geostrategik joylashuvi, turizm resurslari, qayta ishlash sanoati uchun xomashyo bazasi va transport-logistika imkoniyatlari uning raqobat afzalliklarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq mavjud investitsion loyihalarning samaradorligi, hududga xorijiy investitsiyalar oqimini jalb etish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi yetarli emas. Shu sababli, investitsion omillarning iqtisodiy raqobatbardoshlikka ta'sirini ilmiy asosda baholash, ularni ustuvor rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash va samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab global miqyosda mamlakatlar o'rtasidagi raqobat kuchayishi jahon bozoridagi o'zaro ta'sirlarning keskinlashgani, iqtisodiy ixtisoslashuvning chuqurlashgani va kapitaldan samarali foydalanish imkoniyatlarining kengaygani bilan izohlanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarishda o'rtacha xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikka erishish, ishlab chiqarish vositalarining yiriklashtirilgan shakllarda konsentratsiyalashuvi, transmilliy korporatsiyalarning shakllanishi va xalqaro savdoning jadallashuvi — bularning barchasi raqobatbardoshlik tushunchasining dolzarblashuviga olib keldi [2].

Mazkur yoʻnalishda zamonaviy raqobatbardoshlik nazariyasining asoschilaridan biri amerikalik iqtisodchi Maykl Porter tadqiqotlari ahamiyatga ega. D. Tojiboyevaning taʼkidlashicha, M. Porter xalqaro savdo munosabatlarini mamlakatlar oʻrtasidagi raqobat tamoyillari nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilgan [8]. U raqobatning asosi mamlakat emas, balki mamlakat ichidagi yetakchi firmalarning raqobatbardoshligiga bogʻliq ekanini taʼkidlaydi. Jahon bozorida davlatlar emas, balki bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat koʻrsatuvchi firmalar raqobatlashadi, degan gʻoya Porter konsepsiyasining asosiy yoʻnalishidir [4].

Ichki va tashqi savdoning jadallik bilan rivojlanishi raqobatbardoshlik masalalarini chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan, raqobat va raqobatbardoshlik masalalarini yoritishga bagʻishlangan koʻplab adabiyotlar yaratildi. Xususan, A. G. Mokronosov va I. N. Mavrina tomonidan tayyorlangan “Raqobat va raqobatbardoshlik” asarida raqobatning iqtisodiy mazmuni, uning bozor mexanizmidagi oʻrni va raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar tizimli tarzda tahlil qilingan [3]. R. A. Fatxutdinovning “Raqobatbardoshlik: iqtisodiyot, strategiya, boshqaruv” nomli tadqiqotida esa raqobatbardoshlikni strategik boshqarishning nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmlari hamda global bozordagi ustunliklarni shakllantirish yoʻllari yoritilgan [4]. Shuningdek, uning “Tashkilotning raqobatbardoshligini boshqarish” asarida mikroiqtisodiy darajada raqobatbardoshlikni oshirish vositalari, strategik qarorlar qabul qilishda innovatsion yondashuvlar va resurslardan samarali foydalanish usullari keng qamrovda bayon etilgan.

A. B. Baxmatning “Korxonalar raqobatbardoshligi” [5], V. V. Kvasnikovaning “Tashkilotning raqobatbardoshligi” [6] mavzularidagi maʼruzalari hamda internetdagi ochiq taʼlim resurslari orqali mazkur yoʻnalish yanada boyitildi. Bugungi kunga kelib, M. T. Yaxshiyeva tomonidan tayyorlangan “Hozirgi zamon raqobat nazariyasi” hamda D. Sh. Bababekova va B. O. Tursunovlar muallifligidagi “Raqobat nazariyasi” nomli oʻquv qoʻllanmalari raqobat va raqobatbardoshlik konsepsiyasining mazmun-mohiyatini tushunishda asosiy manbalar qatoriga kiradi. Mazkur adabiyotlarda raqobat kategoriyasi bilan birgalikda raqobatbardoshlik tushunchasining mohiyatiga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Yakubov I. O., Islomov A. A., Sunnatov M. N. “Mintaqaviy iqtisodiyot” [7] darsligida ham mintaqalar raqobatbardoshligi va raqobat ustunligi masalasiga alohida eʼtibor berilgan.

Raqobatbardoshlikka berilgan taʼriflar turli boʻlishiga qaramay, koʻp jihatdan umumiylikka ega, faqat maʼlum darajada farqlanadi. Aslida mazkur tushunchaga berilgan universal taʼrif yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas, chunki u obyektga yoki subyektga taalluqliligiga qarab oʻzgaradi [8]. R. Fatxutdinovga koʻra, mamlakat raqobatbardoshligi — uning jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalashuvi, barcha davlat, tijorat va boshqa tuzilmalarning aholining turmush darajasini yuqori bosqichga olib chiqish uchun samarali va sifatli safarbar eta olishidir [9].

M. T. Yaxshiyeva raqobatbardoshlikni mahsulot ishlab chiqaruvchining tashqi bozorda mahsulotni minimal foyda darajasini taʼminlay oladigan narxda sotish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Bu taʼrif raqobatbardoshlikni bozor mexanizmlari

doirasida rentabellik chegarasida faoliyat yurita oladigan ishlab chiqaruvchining imkoniyati sifatida ko‘rsatadi [10]. O‘z navbatida, D. Sh. Bababekova va B. O. Tursunovlar raqobatbardoshlikni iqtisodiy kategoriya sifatida izohlab, uni ishlab chiqarish, taqsimlash, iste‘mol va loyihalash jarayonlariga vaziyatga qarab yondashishni talab qiluvchi tushuncha sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, raqobatbardoshlik iqtisodiy tizimning deyarli barcha bo‘g‘inlarida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, bozorni taqsimlash bosqichida eng yaqqol ko‘zga tashlanadi [11].

Mazkur ilmiy manbalar raqobat va raqobatbardoshlik tushunchalarining evolyutsiyasi, ularning turlari va shakllanish mexanizmlarini yoritish bilan birga, hududiy va tarmoqlar kesimida raqobat ustunliklarini shakllantirishning amaliy jihatlarini ham ochib beradi. Shu bois ushbu manbalar raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha zamonaviy konseptual yondashuvlar va strategik qarorlar ishlab chiqishda muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil yordamida investitsiya faoliyatining statistik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalarning mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta‘siri, avvalo, ishlab chiqarish salohiyatining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda infratuzilmaning modernizatsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Yangi sanoat obyektlarining tashkil etilishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirsa, bandlikning oshishi esa ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, transport va kommunikatsiya infratuzilmasiga qaratilgan sarmoyalar hududiy logistikaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

**1-jadval**

### 2019-2024-yillarda Xorazm viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning dinamikasi<sup>1</sup>

Yil	Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	Xorijiy investitsiyalar, mlrd. so‘m	Davlat investitsiyasi, mlrd. so‘m	Xususiy sektor ulushi, %
2019	4 200	620	1 350	2 230
2020	5 100	880	1 410	2 810
2021	6 700	1 250	1 800	3 650
2022	8 400	1 730	2 000	4 670
2023	9 100	2 050	2 200	4 850
2024	10 500	2 600	2 300	5 600
2024-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarish	2,5	4,2	1,7	2,5


So‘nggi yillarda Xorazm viloyatida investitsiya faolligi ortayotgani kuzatilmoqda. Viloyatga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi, asosan, sanoat,

<sup>1</sup> Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalariga yo‘naltirilmoqda. So‘zimizning dalili sifatida 2019–2024-yillarda Xorazm viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning dinamikasini keltirish mumkin (mlrd. so‘m). Xususan, jami investitsiyalar miqdori ushbu davrda 2,5 barobarga oshgan bo‘lsa, xorijiy investitsiyalar hajmi 4,2 barobarga oshgan. Natijada jami investitsiyalarda xorijiy investitsiyalarning ulushi 14,8 foizdan 24,8 foizga yetgan. Davlat investitsiyalari hajmining 1,7 barobarga ortishi ularning ulushini 32,1 foizdan 21,9 foizgacha kamayishiga olib kelgan. Xususiy sektor ulushining o‘zgarishi esa jami investitsiyalardagi umumiy o‘shish sur‘atlariga mutanosib bo‘lib, natijada uning ulushi deyarli o‘zgarmagan (1-jadval).

Viloyat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish, aholi farovonligini oshirish hamda umuman hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur‘atlarini ta‘minlaydigan qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat. Hudud iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish va investitsiya faolligini ta‘minlashning obyektiv shart-sharoitlari hamda imkoniyatlari yig‘indisi bo‘lgan investitsiya muhitining ajralmas tarkibiy qismi investitsiya jozibadorligidir. Aynan shu omil bozor sharoitida mintaqaning raqobatbardoshligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki xorijiy investorlarning kirib kelishida hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarning ortib borishi ushbu yo‘nalishda olib borilgan ishlarning samarasi hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish bilan bir qatorda, ularni to‘g‘ri joylashtirish va samarali foydalanish masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan, xorijiy investitsiyalarning Xorazm viloyatida sohalar bo‘yicha taqsimoti tahliliy jihatdan ko‘rib chiqildi (1-rasm).



**1-rasm. Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalarning sohalar bo‘yicha taqsimoti<sup>1</sup>**

Xorazm viloyatiga yo‘naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi sanoat hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida jamlangan bo‘lib, bu holat mintaqadagi tabiiy va iqtisodiy resurslar bilan bevosita bog‘liqdir. Ayni paytda xizmat ko‘rsatish va

<sup>1</sup> Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

turizm sohalari yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarda qo‘shimcha institutsional va iqtisodiy choralar ko‘rilishi talab etiladi. Garchi iqtisodiyotning diversifikatsiyasi hozircha past darajada bo‘lsa-da, ayniqsa turizm hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida salmoqli rivojlanish imkoniyatlari mavjud.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Xorazm viloyatida investitsiya oqimlarini faol jalb etish iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va hududiy raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayni paytda sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda turizm kabi ustuvor yo‘nalishlarga investitsiyalarni yo‘naltirish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatidan yanada samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. T.:2019.-228 b.
2. O‘lmasov A., Vahobov A Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. —t.: ”Iqtisodmoliya” 2014. 219b.
3. Tojiboyeva D.”Iqtisodiyot nazarisi” – Toshkent: “Sharq”, 2003. B. 384.
4. Porter M.E. Konkurensiya / per. s angl.: Uch. pos. – M.: Vilyams, 2000. – 495 s. 5.
5. Мокроносов, А.г. Конкуренция и конкурентоспособность: учебное пособие / А.г. Мокроносов, И.Н. Маврина. – Екатеринбург: Издво Урал унта, 2014. – 194 с. 6.
6. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. – М.: Инфра-М, 2000. – 312 с. Фатхутдинов Р. А. Управление конкурентоспособностью организации: учеб. пособие. М.: ЭКСМО, 2005. 544 с.
7. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. T.:2019.-228 b.
8. Tojiboyeva D. “Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va uning nazariy konseptual asoslari” IQTISOD VA MOLIYA / EKONOMIKA I FINANSYI 2023, 8 (168)
9. Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Raqobat nazariyasi. O‘quv qo‘llanma.T.: “Iqtisod Moliya”, 2020 yil, 260 bet.
10. Yaxshiyeva M.t. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. – t.: tDIU, 2019. – 280 bet.
11. Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Raqobat nazariyasi. O‘quv qo‘llanma.T.: “Iqtisod Moliya”, 2020 yil, 260 bet.
12. <https://xorazmstat.uz/>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyul, 7-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**